

ABDURAUF FITRATNING "RAHBARI NAJOT" ASARIDA TA'LIM- TARBIYA MASALALARINING TALQINI

Safarov Tolib Todjievich

*TIQXMMI MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti Ijtimoiy-
gumanitar fanlar va jismoniy madaniyat kafedrasi dotsenti, t.f.n*

Annotatsiya: Maqolada Turkiston hamda Buxoro jadid ma'rifatparvarlik harakatida muhim rol o'ynagan Abdurauf Fitratning asarlarida ilgari surilgan ta'lim –tarbiyaga oid qarashlarining mazmun mohiyati tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: jadidchilik, Buxoro jadidlari, Abdurauf Fitrat, marifatparvarlik, pedagogik faoliyat, jadid darsliklari, maktab, maorif, milliy pedagogika.

Аннотация: В статье анализируется содержание взглядов об образовании и воспитании Абдурауфа Фитрата, сыгравшего важную роль в просветительском движении джадидов Туркестана и Бухары.

Ключевые слова: Джадидизм, Бухарские джадиды, Абдурауф Фитрат, просветительство, педагогическая деятельность, джадидские учебники, школа, образование, национальная педагогика.

Abstract: The article analyzes the content of the views on education and training put forward in the works of Abdurauf Fitrat, who played an important role in the modern enlightenment movement of Turkestan and Bukhara.

Key words: Jadidism, Bukhara Jadids, Abdurauf Fitrat, enlightenment, pedagogical activity, jadid textbooks, school, education, national pedagogy.

KIRISH

Buxoro azaldan ilm maskani bo'lib kelgan, shundan bo'lsa kerak bu zamindan qanchadan-qancha buyuk olim, fuzalolar etishib chiqqan. Ana shunday siymolardan biri nafaqat Buxoroda balki butun Turkiston o'lkasida jadidchilik, taraqqiyparvarlik harakatining rivojiga beqiyos o'ringa ega bo'lgan shaxslardan biri shubhasiz Abdurauf Fitrat hisoblanadi. U nafaqat filolog va tarixchi balki birinchi o'zbek professori hamdir. Uning serqirra ijod yo'li juda murakkab bir davrga to'g'ri kelsada, millat, xalq manfaatlari yo'lidan og'ishmasdan sabr maronat bilan o'zining farzandlik burchini bajardi.

ASOSIY QISM

Fitratning adabiy faoliyat yo'li shartli ravishda uch davrga bo'linadi: 1-davr: 1909-1916- yillarni o'z ichiga olib, Turkiya safari taassurotlaridan ilhomlangan holda jaded ma'rifatparvari sifatida ijod qilgan; 2-davr: 1917-1923-yillarni o'z ichiga olib, bu davrda Fitrat milliy istiqlol g'oyalarini tarannum etgan asarlar yozdi; 3-davr: 1923-1937-yillar bo'lib sovet maxfiy xizmatining doimiy nazoratida bo'lgan Fitrat, asosan, ilmiy va pedagogic faoliyat bilan shig'ullandi. U tomonidan yaratilgan asarlar mazmun-mohiyati jihatidan o'z davri uchun ham bugungi kun uchun ham olamshumul ahamiyatga egadir. Fitratning "Rahbari najot" asari Turkiyada fors tilida yaratilgan bo'lib, 1915-1916-yillarda Bokuda nashrdan chiqqan. Asar o'sha davrda nihoyat darajada ommalashgan bo'lib, hattoki, xorijiy tillarda ham tarjima qilingan.

Ta'limni modernizatsiya qilish, ta'lim-tarbiya uzviyligini ta'minlash, tarbiya komponentlari haqida Buxoro taraqqiyparvari A.Fitrat «Rahbari

najot»ida: "Bu banda to nafas olar ekanman, faryod urub tahsil usullarimizdagi nuqsonlarni e'tiborli arboblarni nazariga havola etaman. Lekin bilmadim, baxtinga qarshi, hozirgacha birorta odam so'zlarimga quloq solmadi. Buning ustiga, sizlarga aytsam, ba'zi "haqiqatshunos"lar meni kofir xisoblaydilar, ba'zi soddadillar esa devona deydilar. Men bo'hton, yolg'on va bemag'iz gaplarga parvo qilmayman, zero, bu xaq yo'lida qilayotgan harakatlarim madhu sano, xurmat-e'tibor, sallachopon, davlat, ortiqcha e'tibor uchun emas. Balki mening maqsadim yagona bir narsa. Men uni dunyodagi barcha narsadan aziz va muqaddas deb bilaman: u narsa esa Olloh va insoniyat oldida turgan vazifamdir", deb yozgan edi. "Rahbari najot" yoki "Najot yoli"- bu xalqning, millatning najot yo'li. Illatlardan, ilimsizliklardan, bid'atlardan tozalanish, poklanish yo'lidir. Fitrat bu asarda siyosiy-ijtimoiy, diniy-ma'rifiy masalalarni yoritadi. U har bir so'zi orqali xalqni jaholatga qarshi kurashga chaqiradi, ma'rifatga, ezgilikka safarbar etadi. U o'zi yashab turgan davrda tushkunlik va parishonlik mavjudligini, buning asosiy sababi esa ilimsizlik va unga mutanisib harakatsizlik ekanini ta'kidlaydi. Jumladan, "bizning e'tiborsiz va xor-u ekanligimizning haqiqiy sababi o'zimizning nosoz a'molimizdandir. O'zimizni musulmon deb bilamiz-u, lekin muhim islom ahkomlarini tamoman tark qilganmiz. Agar ilohiy dargohga ruju qo'yib, ahvolimizni islih qilib, Qur'oni karim ahkomlarini o'zimizga yagona rahbar deb bilsak, taraqqiyotga umidvor bo'lish mumkin". Nazarimda Fitratning ushbu fikrlari bugungi kun uchun ham katta ahamiyatga ega. Zero biz bigun o'zimizni musulmon deymiz-u ammo chinakkam muslim emasmiz. Asarda Turkistonning achinarli ahvoli, taraqqiyotdan orqada qolganligi bayon qilingan bo'lib, unda bayon qilingan har bir mavzu, har bir izoh, din bilan chambarchas bog'lab yoritilgan. Agar "Rahbari najot" asarini inson sifatida tasavvur qilish kerak bo'lsa, uni mukammal inson sifatida ko'rish mumkin. Unga Ollox bergan aql-idrok orqali turli ilmlarni egallashi yoki ularni behuda sarflashi mumkin. XIX asr oxiri XIX asrning boshlarida jadidchilik harakatida ta'limni bu asriy turg'unlikdan chiqarish jamiyat taraqqiyotining bosh omillaridan biri deb baholandi va milliy mafkura hamda islomiy dunyoqarash bilan yo'g'rilgan, zamonaviy taraqqiyotdan xabardor, madaniy va savodli shaxsni tarbiyalash maqsadini qo'yishga intildilar, umummilliy adabiy til ta'limi-masalasini ta'limgohda ona tilini maxsus o'quv predmeti sifatida o'qitish masalasini o'rta qo'yidilar. Biroq bu maqsadni o'sha vaqtda tarqoqlik va hokimiyatning bo'linganligi sababli amalga oshirish mumkin emas edi.

Fitrat Buxoroni qoloqlik va zaiflikdan chiqaruvchi yagona najot beruvchi rahbar va rahnamo - Rahbari najot sifatida "Qur'on" ning ahamiyati benihoya cheksiz ekanligini juda zukkolik bilan anglagan. Fitratning asaridagi yosh avlod tarbiyasi haqidagi fikrlarini o'rganish, unga ijodiy yondoshish bugungi kun talablaridan biridir. "Avlod tarbiyasi,- deydi Fitrat, oiladagi vazifalarning biridir. Bu masala hayot binosining poydevori bo'lganligi sababli nihoyatda muhim va ancha mushkuldir. Darhaqiqat, bugungi shiddatli jarayonlarni o'zida aks ettirayotgan jamiyatimizda farzand tarbiyasiga jiddiy yondashuvni

zamonamizning o'zi talab qilmoqda. Bugungi yoshlar bilimli, ilmga chanqoq, mehnatsevar, chin insoniy fazilatlarga ega bo'lmasa jamiyatda o'z o'rnini topishda juda katta muammolarga uchrashi tabiiy.

O'z davrida Fitrat bu xususda quyidagicha fikr bildiradi: "Hayotning umumiy jadalgochida insonning o'rnini buyuk. Har bir odam ulg'aygach, baxt-saodatini ta'minlash uchun bu jadalgochga kirib kurashishga majbur. Bu kurash maydonida o'zida uch narsani mujassamlashtirgan insongina g'oliblikka erishishi mumkin. Bu uch narsa: tansihatlik, sog'lom fikr va yaxshi axloqdan iborat. Shu uch narsaning bitgasidan xam mahrum bo'lgan odam bu kurashda mag'lub bo'lib chiqishi muqarrar. Boshqa ibora bilan aytganda, baxt-saodat jismonan sog'lom, solim fikrli va chiroyli xulqli insonga nasib etadi, shu jixatlarga ega bo'lganlar turli xil badbaxtliklarni munosib kutib oladilar. Bas, farzandining baxtsiz bo'lishini istamagan xar bir ota uni mustaqil hayotga qo'yib yuborishdan oldin, shu mazkur uchta aslaha bilan qurollantirib qo'yishi kerak". Fitrat fikricha, odamni tarbiya qilish uni jismonan, fikran va xulqan kamolga yetkazib, saodatga erishishga qobil qilishdan iborat.

Garchi har bir inson beshikdan to qabrgacha tarbiya olish qobiliyatiga ega bo'lsa-da, lekin uni bolalikdan tarbiyalash ta'sirliroq va juda muximdir. Olim tarbiyani uch qismdan iborat bo'lishi lozim deb hisoblaydi, bular: 1) badan; 2) aqliy; tarbiya; 3) axloq tarbiyasi". Badan tarbiyasi - badanni sog'lom va kuchli hamda a'zolari mukammal darajaga yetkazishdan iborat, busiz baxt-saodatga erishib bo'lmaydi, deb uqtirar ekan Fitrat, bolalarning badan tarbiyasi, eng avvalo, onalarning, vazifasiga kiradi, deydi. Bola ona kornida paydo bo'lganidan boshlab parvarish topadi, binobarin onaga tekkan har xil bemorliklarga u ham hissamand bo'ladi. "Binoalayh, onalar homiladorlik vaqtlarida turli ishlarda va yeb-ichishda parhez qilishlari zarur". Fitrat homila dunyoga kelgach, go'dak parvarishi onaning suti orqali o'tishini va shu sabab onalar o'zlarini turli kasalliklardan asramoqlari zarurligini ta'kidlab, aks holda onalarning ehtiyotsizligi tufayli go'dak ba'zan nobud bo'lib, "uning qoni" onaning bo'yniga tushadi, deb onalarni o'z farzandlari sog'ligiga mas'uliyat bilan yondoshishlari lozimligini uqtiradi. Kuyunchak olim onalar go'daklariga tez hazm bo'luvchi mazali taomlarni berib, muayyan bir vaqtlarda ovqatlantirishlari, bolalar toza havoda uyini bilan mashg'ul bo'lib o'sishlari, shuningdek, bolalar nihoyatda tozalikka o'rgatilishi zarurligini ta'kidlaydi. Fitrat eski maktabdagi ayanchli sharoitlarni tanqid ostiga oladi: "Bizning bechora ma'sum go'daklarimiz oftob tushmaydigan qorongu badhavo, sassiq xonalarda hayvonlar kabi tiqilib olib, xas-xashak ustida o'tirib, sakkiz-to'qqiz soat davomida dars o'qiydilar, buning ustiga har kuni biz johil muallimning qo'lidan musht, kaltak yeb, goh boshlar yoriladi, oyoqlar qonab majruh bo'lib, ranglari ko'karib sakkiz yilni shu zaylda o'tkazadilar. Shuning uchun maktabni qamoqdan ozod bo'lgan mahbus kabi bemor sust, beg'ayrat va iflosliklaricha bitiradilar. Ana shular sabab, bizning millatimiz hammadan orqada qolgandir". So'zsiz, Fitrat bolalarning yorug' xonalarda, barcha sharoitlari ta'minlangan maktablarda o'qitishni orzu qilgan.

Fitrat, fikr tarbiyasini ham bola tarbiyasida nihoyatda muhim jixat ekanligini ta'kidlaydi: "Fikr tarbiyasi odamning aqlini kamolga yetkazish va baxt-saodatga yetishishi uchun qobiliyatli qilib tarbiyalashdir. Odam akli to'g'ri va yaxshi muxokama eta olsagina kamolga yetgan xisoblanadi." Fitratning ta'kidlashicha, to'g'ri muxokama yuritish uchun kishi uch narsani: isbot; istiqomat; sur'atni bilishi shart. Isbot – bu ma'lum xukmlarning rost va to'g'ri bo'lishligi; istiqomat – ma'lum xukmlarning majhul xukmlarga mantiqan to'g'ri va izchil ko'chishi; sur'at esa to'g'ri va ma'lum xukmlarning beto'xtov, batartib va tezlik bilan majxul xukmlarga ko'chishiga aytiladi. Kimda shu xukmlarning bittasi bo'lmasa, yo umuman muxokama qilolmaydi yoki g'alati, ya'ni noqis muxokama qiladi.

Binobarin, u odam umri davomida qaysi bir ishga ko'l urmasin doim yoki ko'pincha nokulay vaziyatlarga tushib qoladi. Fikriy tarbiya xususida ana shu uchta jihatni unutmaslik kerak. Olim, axloqiy tarbiya xususida shunday deydi: "Axloq tarbiyasi insonni komil, chiroyli axloq egasi, jamiyatga foydasi tegadigan a'zo qilib shakllantirishdan iborat. Bolalarga axloqiy tarbiya berishdan avval ularning jismoniy va fikriy tarbiyalariga e'tibor bering, so'ng axloq qoidalarini tushuntirib, yaxshi amallarga odatlantirib, yomon amallardan qaytarib turing". Fitrat bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalashda tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan hikoyalar o'qib berib, ularni nima yaxshi-yu nima yomonligiga o'rgatib borish kerakligini uqtirar ekan, ammo axloq tarbiyasi uchun buning o'zi kifoya qilmasligini va bir muhim shartga rioya qilish lozimligini ta'kidlaydi. Bu shart shundan iboratki, tarbiyachi o'rgatayotgan barcha ko'rsatmalariga eng avvalo o'zi rioya qilishi lozim va bu axloqiy tarbiyaning eng muhim jihatidir.

Fitrat madaniy xalqlar farzandlarining axloqiy tarbiyasiga katta ahamiyat berishlarini takidlar ekan, ular buzuq axloq egalarini muallimlikka u yokda tursin, hatto maktab ostonasidan ichkariga o'tkazishmasligini, korovullikka ham kabul qilmasliklarini, bolalarning axloqiga zid kitoblarni ham kiritishmasliklarini alohida qayd qiladi. Shu o'rinda olim, eski maktabdagi "tarbiyachi va muallimlarning axloqsizligi, bolalar o'qiydigan kitoblarning badaxloqligi" ni qattiq tanqid ostiga oladi. Bundan tashqari Fitrat sotsiologiya va statistika fanlarini bugungi kun nuqtai nazaridan qaragan holatda o'sha davr Buxoro uchun kerakli ekanini bayon etib jumladan quyidagilarni ta'kidlaydi: "har yili tabobatning yo'qligidan o'lib ketayotganlarning adadini bizga ma'lum qilmaydilar. Ammo taraqqiy etgan mamlakatlarda odat bunday emas, ularning hukumati maxsus daftarlarda raiyatning sonini hisoblab, tavallud topgan va vafot etganlarni qayd qilib turadilar".

XULOSA

Muxtasar qilib aytganda Fitrat o'zining ushbu asarida jamiyatni har tomonlama rivojlantirish hamda yosh avlodni etuk, barkamol, bilimli va zakiiy bo'lib voyaga etishi uchun albatta qunt bilan o'qishi kerakligini ta'kidlab uni echimi borasida o'zining takliflarini ilgari suradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurauf Fitrat. Najot yo'li . T. "Sharq" 2001. 176- bet.
2. Shaxnoza Erkinovna Xamroqulova (2021). O'zbek ma'rifatparvari Abdurauf Fitrat asarlarida ekologik tarbiya masalalari. *Sciyencye and Education*, 2 (11), 1116-1119.
3. Abdurauf Fitratning millatga "Najot yo'I" ni ko'rsatgan asari nomli maqolasi. <https://cyberleninka.ru/article/n/addurauf-fitratning-millatga-najot-yo-li-ni-ko-rsatgan-asari/viewer>
4. Nargiz Daurbayeva "Fitrat drammlarida milliy ozodlik g'oyasining talqini" dissertatsiya. 1999.
5. Durdona Axatovaning "Abdurauf Fitratning ma'rifiy-pedagogik qarashlari" dissertatsiya 1998.
6. Bozorova R. (2023). ILM NARSALARNING ENG FOYDALISIDIR. *Научный Фокус*, 1(6), 372-375.
7. Bozorova R. (2021, September). Methods and Means of Cultivating Kindness in the Family of the Uzbek People. In "ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 43-44).
8. Bozorova R. (2023). TA 'LIM TARBIYA JARAYONIDA INTERFAOL MEDOTLARDAN FOYDALANISH. ITALY" ACTUAL PROBLEMS OF SCIENCE AND EDUCATION IN THE FACE OF MODERN CHALLENGES", 14(1).
9. Bozorova, R. Z., & Avezov, O. (2023). DINIY MASALALARDA TA'LIM-TARBIYANING AKS ETISHI. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2(11), 153-156.
10. Safarov, T. T. (2021). BUKHARA GUZARS AND THEIR ROLE IN THE SOCIO-ECONOMIC LIFE OF THE CITY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY*, 2(11), 13-17.
11. Safarov, T. T., & Nayimov, C. N. (2021). The Place of Markets and Caravansalities in Trade Between the Emirates of Bukhara and Russia. *European Scholar Journal*, 2(5), 169-171.
12. Tolib, S. (2023). JADID PEDAGOGIKASI: ILMIY-NAZARIY TAHLIL. In *Uz-Conferences* (Vol. 1, No. 1, pp. 821-826).
13. Todjievich, S. T. (2023). A General Description of the Trade Routes and Connections of Central Asian Khanates with Foreign Countries. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, 2(5), 338-343.
14. Todjievich, S. T. (2023). A General Description of the Trade Routes and Connections of Central Asian Khanates with Foreign Countries. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, 2(5), 338-343.
15. Todjievich, S. T. (2023). TURKISTON O'LKASIDA YASHAGAN TURKIY XALQLAR VA ULARNING ETNIK TARKIBI. *Scientific Impulse*, 1(8), 374-377.
16. Фазлиев, Ж. Ш. (2023, October). ТОМЧИЛАТИБ СУФОРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ ОРҚАЛИ СУФОРИЛГАН ОЛМА БОҒЛАРИНИНГ ТУПРОҚ АГРОКИМЁВИЙ КЎРСАТКИЧЛАРИ. In *Proceedings of*

International Conference on Educational Discoveries and Humanities (Vol. 2, No. 11, pp. 19-23).

17. Фазлиев, Ж. Ш. (2019). EFFICIENCY OF USE OF CLAY WATER WITH DROP IRRIGATION. ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ, (4).

18. Xudayev, I. J., & Tojiyev, S. M. (2023). NAMLATGICH-BLOKLARDAN HOSIL QILINGAN EKRANLI EGATLARDAN G 'O 'ZANI SUG 'ORISH TEXNOLOGIYASI. In Uz-Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 514-519).

19. Худайев, И., & Фазлиев, Ж. ТЕХНОЛОГИЯ КАПЕЛЬНОГО ОРОШЕНИЯ САДОВ И ВИНОГРАДНИКОВ. JURNALI, 176

20. Худайев , И., & Тожиев , Ш. (2023). БОҒ ВА УЗУМЗОРЛАРДА ТОМЧИЛАТИБ СУҒОРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИНИ ЖОРИЙ ҚИЛИШНИНГ САМАРАДОРЛИГИ. Talqin Va Tadqiqotlar, 1(1). извлечено от <https://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/220>

